

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA O'YINLAR ORQALI YANGI SO'ZLARNI O'RGATISH

G'ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8055842>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarga o'yinlar orqali yangi so'zlarni o'rgatish, bunda innovatsion usullardan foydalanish haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: barkamol avlod, ta'lim tizimi, tabiiy moyilik, qo'shiqlar va she'rlar, jismoniy faollik, zaruriy ko'nikmalar

KIRISH

Mustaqillik yillarida respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzluksiz ta'lim tizimi barpo etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasi mazkur tizimning ilk bo'g'ini hisoblanadi va ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi bo'lgan - barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari aynan poytaxtimiz Toshkent va Samarqand viloyatlari oliy ta'lim muassasalarida tashkil etildi. Bu yo'nalish bo'yicha boshqa viloyatlarda ham tezroq yangiliklar kiritilishi, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni yo'lga qo'yish jadal rivojlantirilishi kerak. Bekorga xalqimizda "Bola boshidan" degan maqol mavjud emas. Biz bolalarning yoshligidanoq chet tillarini o'rgatishga katta ahamiyat bersak, erta kelajagimiz bundanda porloq bo'ladi. Bugungi XXI asr bolajonlarining qo'lidan bu ish albatta keladi. Biz faqat ularga to'g'ri yo'nalishni ko'rsata bilishimiz shart deb o'ylayman.

ASOSIY QISM

Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyilik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtinig ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, yosh bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik kerak. Aks holda chet tillarini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish mumkin.

Bolajonlarimizga quyidagi yo'nalishlarda dars o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi:

-qo'shiqlar va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish;

-aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar bilan o'rgatish;

-multfilmlar orqali. Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi;

-ko'rgazmali qurollar, turli xil rasmlar, ertaklar, kitoblar, va shunga o'xshash turli xil predmetlardan ham bo'lishi mumkin.

Bilamizki bolalar qiziquvchan bo'ladi. Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning

uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o'tmaslik lozim. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufali bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan xolda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko'mak beradi. Shu sababli ota -ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar va o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarni chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi.

Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola chet tilini oson o'zlashtirishishi bo'yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o'rganadi shuning uchun xorijiy tilni qollanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilishini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davr bola rivojlanishning eng muhim davri ekanligi isbotlangan. Shuningdek uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolani o'quv yilining birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday holatda ham bolaning psixologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unutmasligimiz kerak.

Har qanday bola alohida shaxs - individ hisoblanadi, tabiiyki ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va yaxshi bo'lmagan natijalarga olib keladi. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologo-pedagogik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklarini va serhafsasaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur. Ota-ona o'z farzandini har tomonlama yetuk bo'lishini istaydi va ko'p xollarda bolaning psixologik va fiziologik tayyorligini hisobga olmasdan unga turli fanlardan yuklamalar berishga, til o'rgatishga yoki sport mashg'ulotlariga jalb qilishga xarakat qiladilar. Aksar xolatlarda ota onalar kutilgan natijaga erisha olmagach, bolaga tanbeh berish yoki tengdoshlariga qiyoslash orqali bolaga ta'sir o'tkazishga xarakat qiladilar. Ammo bu ikki urinish ham bolaning o'rganishga bo'lgan rag'batini susaytiradi va atrofdagi narsalarga bo'lgan qiziqishini so'nishiga sababchi bo'lib qoladi. Bunday ko'ngilsiz holatlarni oldini olishda ota ona va tarbiyachilarning roli beqiyosdir. Bolaning erkin fikrlashga o'rgatish, undagi qiziquvchanlikni va atrofni o'rganishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish, bolaning tasavvurini

boyitish, ijodkorligini yuzaga chiqarishni eng oson va maqbul yo'li bu o'yindir. Bolalar o'ynashganda ular o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq qiladilar, farazlarni sinovdan o'tkazadilar, zaruriy ko'nikmalarni egallaydilar, o'z tasavvurlaridan foydalanishadi va o'zlarining dunyolarini kashf etishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori // www.lex.uz
2. O'. Xoshimov, I.Yoqubov Ingliz tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: 2003 - 270 c.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T.2016.